O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK VA TURK MAQOLLARIDA ERKAK KONSEPTINING SEMANTIK MAYDONI

THE SEMANTIC FIELD OF THE CONCEPT OF MASCULINITY IN UZBEK AND TURKISH PROVERBS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/NTJR1828

Tillayeva Oltinoy Baxtiyorovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, o‘zbek tilshunosligi kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti
baxtiyorovnaoltin@gmail.com

Annotation. *This study examines the semantic field of the concept of man in Uzbek and Turkish proverbs through a comparative linguocultural approach. The research focuses on identifying the core semantic components, associative meanings, and cultural connotations associated with masculinity in the paremiological units of both languages. Particular attention is paid to the representation of men as bearers of strength, courage, responsibility, labor, honor, authority, protection, and social status.*

Keywords. *Semantic field; concept of man; masculinity; Uzbek proverbs; Turkish proverbs; paremiology; linguoculturology; gender; cultural values; comparative analysis.*

Maqollar bir millatning o‘zaro tili, tasavvur tushunchasi hamda falsafasining ko‘zgusidir. Yuzyillar mabaynida tajribalardan o‘tgan va xalqning umum insoniytushunchalar yig‘indisi holiga kelgan ixcham hamda chiroyli so‘zlar majmuasidir. [Hengermen, 2007: 6] Dunyodagi barcha millat va elatlarning o‘z turmush tarsi, ijtimoiy kelib chiqishi, dunyoqarashi hamda diniy e’tiqod tushunchalariga asoslanib asrlar osha ishlatib kelayotgan parameologik birliklari, ya’ni, maqollar tizimi mavjud. Maqollar qoliplashgan so‘zlar to‘plami hisoblanib, so‘zlarning o‘rni almashtirilmaydi. “Oltin otashda, inson mehnatda bilinar” [Yatagan, 2010: 5], ushbu keltirilgan misolda so‘zlar joyi qotib qolgan hisoblanib, ularning joylashgan yeri o‘zgartirilsa, maqolning umumiy mazmuni ham buziladi.

Qardosh xalq hisoblanuvchi o‘zbek va turk xalq maqollarida erkak va ayol konsepti eng faol birliklardir. Ular ba’zan bir biriga qarshi zid holatda, ba’zan bir birini to‘ldirib, ba’zan biri ikkinchisining izidan ergashib maqolning ma’nosini

mukammallashtiradi. Shunga ko‘ra maqollar ma’nosi o‘zgarib asl kutilgan ma’noning maqsadi yuzaga keladi.

Konsept – inson tafakkurida shakllanib, til orqali ifodalanuvchi va madaniy tajriba bilan boyigan mental model bo‘lib, u voqelikning ma’lum bir sohasini kognitiv jihatdan ko‘rsatib beradi. Konseptning tuzilishiga keladigan bo‘lsak, u yadro (asosiy mazmun) hamda periferiya (madaniy, individual qarashlar) qatlamlaridan tuzilgan bo‘lib, til tizimida leksik, frazeologik hamda paremiologik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Semantik maydon esa muayyan konsept bilan bog‘liq bo‘lgan leksik birliklarning tizimli majmui sanalib, ushbbu birliklar o‘zaro semantik aloqalar orqali yagona ma’no tizimini tashkil etadi. Semantik maydon ham kensept kabi ikki qismdan: yadro (gipersema yoki umumiy ma’noli so‘zlar) va periferiya(izohlovchi, sinonimik maydon) iboratdir.

Erkak konsepti jamiyat ongida erkak shaxsiga nisbatan qaraladigan fazilatlar, vazifalar, axloqiy talablar, ularga beriladigan baholar va ijtimoiy rollar majmuidan iborat kognitiv-madaniy birlikdir. Bu konsept ayni damda faqat biologik jinsni ifodalamaydi, u erkakning oiladagi, jamoadagi va umuman jamiyatdagi mavqei hamda unga yuklatilgan mas’uliyatni aks ettiradi. Erkak konseptini eng aniq ifodalovchi til birliklaridan biri sifatida maqollarni ko‘rishimiz mumkin. Chunki xalq tajribasi ularda qisqa, obrazli va baholovchi shaklda saqlanadi.

Maqol orqali erkakga nisbatan “qanday bo‘lish kerak” yoki “qanday bo‘lmaslik kerak” degan ijtimoiy me’yor shakllanadi. Shu ma’noda erkak konsepti nafaqat tavsifiy, balki normativ xususiyatga ham ega. Erkak konseptining ma’no yadrosini odatda mardlik, jasorat, so‘zida turish, dovyuraklik, qo‘rqmaslik, mehnatsevarlik, himoyachilik va oila oldidagi mas’uliyat tashkil etadi. Ushbu belgilar ko‘p millatli xalqlarning maqollarida uchrashi mumkin, chunki ular insoniyatning umumiy qadriyatlari bilan bog‘liq.

Konseptning periferik qatlami esa madaniylik, an’anaviylik, diniy dunyoqarashlar va tarixiy tajribaga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bir xalq maqollarida erkak ko‘proq jangovorlik va jasorat rzi sifatida ko‘rinsa, boshqasida hunarmandlik, ro‘zg‘or yuritish yoki oila boshlig‘i sifatidagi vazifasi ustuvor ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

Aynan yuqorida ta’kidlangan farqlar o‘zbek va turk maqollarini qiyoslashda muhim material bo‘lib beradi. Erkak konsepti maqollarda ko‘pincha bevosita nomlanmaydi. “Er”, “yigit”, “kishi” kabi so‘zlar ishlatilmasa ham, mazmunda erkakka xos rol, mas’uliyat yoki fazilat nazarda tutilishi mumkin. Bu holat

bilvosita gender nominatsiyasi deyiladi va erkak konseptining semantik maydonini kengaytiradi.
Shunday qilib, erkak konsepti maqolalarda uch xil darajada namoyon bo‘ladi: birinchidan, bevosita nomlangan erkak obrazi; ikkinchidan, erkakka xos fazilat va rollar; uchinchidan, erkakni boshqa gender yoki ijtimoiy guruh bilan solishtirish orqali shakllangan qiyosiy ma’no.

Maqollarda erkak konseptining bevosita ham bilvosita gender nominatsiyalari orqali ifodalanib kelishining bir biridan asosiy farqlari nimada?

Erkak konsepti maqol parameologik birliklarida “er”, “erkak”, “yigit”, “kishi”, “o‘g‘lon” kabi ijtimoiy rollar bilan ifodalanganda bevosita gender nominatsiyasi orqali ushbu konseptga hitob qilingan bo‘ladi. Bunda maqolning ma’nosi ham yashirin metaforalarsiz to‘g‘ridan to‘g‘ri ochib beriladi. Masalan, “Er yigitga qirq hunar ham oz” xalq maqolida “er” leksikasi orqali butun erkaklarga nisbat berilib, ularga qirq hunarni ham kasb qilishlari ham zarur ekanligi ham qila olish qobiliyatiga ega ekanliklariga ishora bor. Keltirilgan maqol kabi misollar har ikki til maqollarida bisyordir.

Maqollarda erkak tushunchasining aynan “erkak” yoki “er kishi” kabi ifodalar bilan emas, balki, unga nisbat beriluvchi ko‘chma hamda majoziy sifatlar hamda leksemalar orqali ifodalanishi bilvosita nominatsiya orqali amalga oshadi. Bunda, mard, botir, arslon, maydon, rizq, hunar, so‘z, nomus, or, yo‘l kabi birliklar vositasida erkak konsepti ifodalanadi.

Quyida ikki xalq maqollarida aynan erkak konseptining qanday semantik maydonlarda tashkil qila olishini hamda ularning qaysi tur nominatsiya orqali berilishini ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik zonalari

1.Jasorat va mardlik zonasi

Kalit so‘zlar: mard, botir, bahodir, yigit, arslon, maydon, kurash, qo‘rqmaslik, pahlavon va.b.

Tahliliy savol: Erkak qanday sinovda va qaysi xatti-harakat orqali qadrlanadi?

Misollar:

Yigit maydonda bilinar.

(Yiğidin cesurunu meydanda sına.). [Yatagan, 2010: 23]

Erning moli - elning moli.

(Yiğidin malı – milletin malı.) [Yatagan, 2010: 30]

Yigit o‘lar oti qolur.

Botir o‘lsa nomi qolar, nomard o‘lsa nimasi qolar.
(Yiğit ölse, namı kalır; namert ölse nesi kalır;) [Yatagan, 2010: 37]
Botir baqrayib turmas, qo‘rqoq qochib qutilmas.
(Cesur bakıp durmaz, korkak kaçıp kurtulmaz.)
Botir miltiqsiz bo‘lmas, baliq qiltiqsiz.
(Yiğit tüfeksiz olmaz, balık kılçıksız.)
Er yigit o‘zi uchun tug‘ilar, eli uchun o‘lar
(Er yiğit kendi için doğar, vatanı için ölür.)
Odam safarda, botir hatarda bilinar.
(Adam yolculukta bilinir; yiğit, tehlike anında.)
Mardlik sotib olinmas.
(Mertlik satılıp alınmaz.)
Mardni maqtamasang ham mard, nomardni maqtasang ham dard.
(Merdi övsen de merttir, namerdi övsen de derttir.) [Yatagan, 2010: 324]
Mergan ovda, mardlik yovda kerak.
(Nişancı avda gerektir, mertlik düşmanda.)
Nomard do‘stdan mard dushman yaxshi.
(Namert dosttan mert düşman iyidir.) [Yatagan, 2010: 325]

Keltirilgan maqol namunalari har ikki tilde ham deyarli bir xil ma’noni tashiydi. Qadimdan bir biriga qardosh millat hisoblanib keluvchi o‘zbek va turk tillarida erkak konseptiga nisbatan manaviy, diniy hamda ijtimoiy qarashlar ayni deyish mumkin. Shu sababdan ham, har ikki tilda bir maqolning ekvivalentini toppish mumkin. Yuqoridagi misollarda erkak konseptinining “botirlik”, “mardlik”, “kurash maydoni”, “hatar”, “dushman”, “nom”, “el” va boshqa semantik maydonlar hosil qilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Bunda erkak konsepti umumxalq tomonidan ba’zan er, yigit, odam kabi bevosita nominatsiya birliklari orqali, ba’zan esa mard, mardlik, botir kabi leksemalari bilan bilvosita nomlanib kelinmoqda. Erkak obrazi maqollarda va’daga sodiqlik, eli uchun jonini fido qiluvchi, hatarli vaziyatlarga hamisha shay turishi, yov kelganda mardonavor o‘zini ko‘rsatishi va agar jangda halok bo‘lsada, uning nomi mangu qolishi hamda jamoa oldidagi mas’uliyat bilan baholanadi. “Maydon” oddiy nutq birligi emas, balki sha’n, or, nomus, ishonch va ijtimoiy maqomni belgilovchi ma’naviy qiymatdir. Shuning uchun “maydon” konsepti erkaklik semantik m aydonidagi markaziy birliklardan biri bo‘lishi mumkin.

2.Mehnat, hunar va ta’minot zonasi

Kalit birliklar: hunar, mehnat, kasb, rizq, non, topish, yo‘l, safar, ro‘zg‘or.

Tahliliy savol: Erkakning ijtimoiy qiymati ishlab chiqarish, hunar va ta’minotchilik bilan qanday bog‘langan?

Misollar:

Erkak keltirishni, ayol yetkazishni bilmog‘i lozim.

Erkek getirmeyi, kadın yetirmeyi bilmeli.

Azimle işleyen duvarı deler.

G‘ayrat qilgan tog‘ni kesar. [Yatagan, 2010: 35]

Yigit degan er bo‘lur,

Mehnat ko‘rsa, she’r bo‘lur.

(Yiğit denen er olur, iş görse, aslan olur.)

Yigitning ko‘rki mehnati bilan.

(Yiğidin güzelliği işindedir.) [Yatagan, 2010: 425]

Mard yigitning labi yog‘li, dangasaning boshi qonli.

(Mert yiğidin dudağı yağlıdır, tembelin başı kanlıdır.) [Yatagan, 2010: 108]

Er yigit nomi bilan, mehnatda shani bilan.

(Er yiğit namı ile çalışmada şanı ile .) [Yatagan, 2010: 119]

Ish sevarni el sevar.

(İş severi herkes sever.) [Yatagan, 2010: 104]

Keltirilgan maqollarda erkak konsepti asosan bevosita gender nominatsiyasi orqali ifodalanib kelgan: er yigit, erkak, yigit, mard yigit kabi. “Ish sevarni el sevar” maqolida esa bilvosita nomlanishni ko‘rish mumkin. Har ikki holatda ham erkak konsepti “mehnat”, “hunar” hamda “taminot” kabi semantik maydonlarni faol tashkil qilgan. Ushbu semantik zonalar xalqlar tomonidan erkakka nisbatan oila boshligi, oila boquvchisi, mehnat qilib o‘zini ko‘rsatuvchi, mehnat va mashaqqatda g‘ayrat, shijoat, shuningdek, azim holatda turib bera olishiga kuchli ishonishlari oqibatida yuzaga kelgan. Bundan tashqari, erkak konsepti faollik, kasb-hunar, iqtisodiy mas’uliyat hamda oila ehtiyojini ta’minlash bilan bog‘lanadi. “Mehnat kelganda she’rdek bo‘lish” erkakning shaxsiy fazilatigina emas, uning jamiyat va oiladagi maqomini belgilovchi vosita sifatida chiqadi. O‘zbek va turk maqollarida kuch, jasorat hamda ta’minotchi roli an’anaviy erkaklik kutishlarining muhim qatlamlari sifatida qayd etilgan.

3.So‘z, nomus va obro‘ zonasi

Kalit birliklar: so‘z, va’da, nomus, or, sha’n, yuz, obro‘, el, nom.

Tahliliy savol: Erkaklik faqat jismoniy kuchmi yoki axloqiy mas’uliyat hammi?

Misollar:

Va’daga va’fo mardning ishi, va’dasiz subutsiz kishi.

(Verilen söze vefa merdin işi, vefa göstermeyen sözünde durmayan kişidir.) [Yatagan, 2010: 32]

Yigitni or o‘ldirar, tuyani sarbon.

(Yiğidi ar, deveyi deveci öldürür.)

Yigitning moli bo‘lguncha ori bo‘lsin.

(Yiğidin malı olacağına, utanma duygusu olsun.)

Orsiz yigitdan nomusli qiz yaxshi.

(Arı olmayan yiğitten namuslu kız iyidir.) [Yatagan, 2010: 627]

Eman daraxtining egilgani - singani,

Er yigitning uyalgani – o‘lgani.

(Sağlam ağacın eğilmesi kırılmäsıdır, er yiğidin utanmäsı ölmesidir.)

Er yigitga ikki nomus, bir o‘lim.

(Er kişiye iki namus bir ölümdür.)

Er yigitni nomus o‘ldirar.

(Er yiğidi namus öldürür.)

Er nomusi - el nomusi.

(Bir kişinin namusu halk namusudur.) [Yatagan, 2010: 631]

Ma’lumki, umuminsoniy qarashlarning barchasida erkak konseptiga nisbatan ularning avvalo bir so‘zli, or nomusli ekanligi ifodalanib kelinadi. Erkaklar oila, ijtimoiy hamda jamoaviy hayotda hamisha aytgan so‘zlarining orqasida tura olishligi bilan ayol genderidan ajralib turadi, va bu erkaklar uchun ularning tug‘ma hilqatida bor hislat deya e’tirof etiladi. Shu boisdan, erkak konseptining semantik maydonida or, nomus hamda so‘z zonalari albatta yuzaga kelishi tabiiy. Xalq maqollarida erkak konsepti azaldan shakllanib, insonlar ongida azaldan paydo bo‘lgan qarashlar, ularning or va nomusi ustida jonini fido qilishligi o‘z aksini topib kelmoqda. Ayniqsa, turkey xalqlar ma’naviyati, madaniyati, dini va ijtimoiy hayotida erkaklar nomus va sha’ni uchun kurashuvchi sifatlar bilan tilga olinadi. Yuqorida keltirilgan ikki millat parameologik birliklarida ham aynan erkak konsepti “nomus”, “uyat”, “va’daga va’fo”, “orli” kabi semantik maydonlarda o‘z aksini topishi ajablanarli hol emas. Or nomus masalasi yigit, er deya bevosita nomlangan erkak konsepti uchun hayot mamot masalasidir, bunda er yigitning uyatli holatga tushishi uning o‘limi bilan barobar ekanligi ifodalangan. Shuningdek, bir er yigitning nomusi butun elning, butun xalqning nomusi bilan tenglashtirilgan.

4.Ota, nasl va avlod zonasi

Kalit birliklar: ota, o‘g‘il, avlod, nasl, tarbiya, uy, oila, nom qoldirish.

Tahliliy savol: Erkak obrazi oilada faqat ta’minotchi sifatida emas, ota va avlod davomiyligini ta’minlovchi shaxs sifatida qanday ko‘rsatiladi?

O‘g‘il tog‘aga, qiz ammaga o‘xshar

Oğlan dayıya, kız halaya çeker.

(Kız halaya, oğul dayıya benzer.) [Yatagan, 2010: 26]

Otga ham, itga ham zot kerak.

Ata da soy gerek, ite de.

Ot olsang, otasini surishtir.

(At alsan atasını araştır.) [Yatagan, 2010: 27]

Alp otadan, zot onadan.

(Alplik babadan, soy anadan.) [Yatagan, 2010: 244]

Ota aql, ona idrok. (Baba akıl, ana idraktır.)

Ota bilak, ona yurak. (Baba bilek, ana yürek.)

Erkak konsepti ijtimoiy qatlamda “ota”, “o‘gil”, “tog‘a”, “amaki”, “bobo”, “jiyan” va boshqa leksik birliklar bilan nomlanib keladi. Har bir birlikning ijtimoiy, oilaviy hamda jamoaviy haoytda bajaradigan roli hamda ma’suliyati turli xil. Ulardan ota obrazi erkak konseptining biologik emas, balki ijtimoiy-axloqiy qatlamini ko‘rsatadi. “Ota” oiladagi tartib, tajriba, nasihat va avlodiy davomiylikning manbai sifatida anglashiladi. Shu bois ota semantik maydoni “tarbiya, tajriba, nasl, mas’uliyat” zanjiri orqali tahlil qilinadi. “Ota” obrazi bir so‘z bilan nasl, avlod, irqiy kelib chiqish poydevori hisoblanadi. Erkak konseptining “ota” semantik maydonida, avvalo, uning bir naslning boshlang‘ichi, butun ma’suliyat va butun boshqaruv unga hos ekanligi ko‘rsatiladi. Xususan, “Otga ham, itga ham zot kerak” maqoli orqali, xatto, hayvonlarning ham nasli qanday ekanligi ularning zotiga bog‘liqligi, ularning zotdor ot yoki it bo‘lishi nasliga qarab belgilanishi majoziy tarzda insonlar ongida erkakning bir nasl va bir avlodning boshlanishida o‘rni beqiyos ekanligiga ishora qiladi. “Ot olsang, otasini surishtir” maqoli ham yuqoridagi fikrning isbotidir.

5.Metaforik obrazlar zonasi

Kalit birliklar: arslon, tog‘, ustun, burgut, yo‘l, maydon, daraxt.

Tahliliy savol: Erkak konsepti qaysi obrazlar orqali kuchaytiriladi va bu obrazlar qanday madaniy ma’no beradi?

Arslon izidan, yigit so‘zidan qaytmas.

(Aslan izinden geri dönmez, yiğit sözünden.) [Yatagan, 2010: 245]

Yotgan asrlondan, yurgan tulki yaxshiroq.

Yatan aslandan, gezen tilki yeğdir. [Yatagan, 2010: 34]

Erning yuragi, she’rning yuragi.

Erin yüreği, aslanın yüreğidir.) [Yatagan, 2010: 254]

O‘zbek va turk maqollarida metafora orqali ma’no ko‘chish hodisasi juda keng tarqalgan, va bunda bir konsept xalq tarafidan e’tirof etilib kelingan qaysidir obraz orqali jonlantiriladi. Xususan, “erkak” konsepti ham xalq maqollarida “arslon”, “she’r”, “dovyurak qoplon”, “bo‘ri” kabi majoziy obrazlarning xususiyatlarini qabul qiladi. Erkak konsepti maqollarning juda ko‘p namunalarida xuddi shunday metaforik semantik maydonni hosil qiladi. Ushbu semantik maydonda erkak tushunchasi turli xil metaforik o‘xshatishlar orqali ba’zan xarakter xususiyatlari, ba’zan shaxsiy salohiyati ko‘rsatib beriladi. Misol uchun, “Erning yuragi she’rning yuragi” xalq maqoli orqali o‘rmonlar qiroli she’r obrazi qo‘rqmas, yurgan izidan qaytmas, barcha hayvonlar ustidan mutlaq hukmdor ekanligi xalq orasida “erkak” konseptiga nisbatan qo‘llanilib kelinadi. Erkak konsepti shu qadar dovyurakki, uning qahramonli va jasurligi she’rning yuragiga qiyoslanib metaforik semantic maydon hosil qilmoqda. Shuningdek, metaforik obrazlar erkaklikning abstrakt belgilarini ko‘rinadigan ramzga aylantiradi. Masalan, “she’r” kuch va qo‘rqmaslikni, “arslon” izidan qaytmaslik hamda barqarorlikni ramziy ifodalaydi.

6.**Salbiy baholash zonasi:**

Kalit birliklar: dangasalik, so‘zida turmaslik, jasoratsizlik, mas’uliyatsizlik kabi erkakka xos deb qaralgan kamchiliklar.

Tahliliy savol: Erkak konseptining g‘oyaviy harakter xususiyatini qaysi illatlar qoralab keladi?

Botir qiyinini yengar, nomard bo‘yningni egar.

(Yiğit zoru yener, namert boynunu eğer.)

Qo‘rqoq qo‘rqoqqa o‘rtoq.

(Korkak korkağa ortaktır.)

Qorqo‘q qorg‘on ololmas .

(Korkak, kale alamaz.)

Qorqo‘qda uyat bolmas.

(Korkakta utanma olmaz.) [Yatagan, 2010: 257]

Mard tuzar, nomard buzar.

(Mert yapar, namert bozar.)

Mard o‘zidan ko‘rar, nomard o‘zgadan.
(Mert kendisinden fayda görür, namert başkalarından.)
Nomard yovga yalinar, mard kuchiga suyanar.
(Namert düşmana yalvarır, Mert gücüne güvenir.)
Nomard ishing bilmasin, bilib bag‘ring tilmasin.
(Namert işini bilmesin, bilip bağrını delmesin.)
Dangasaning vaji ko‘p, ohangsizning avji ko‘p.
(Tembelin bahanesi, ahenksizin sesi çok.) [Yatagan, 2010: 33]

Erkak konsepti maqollarda asosan salbiy hamda ijobiy bo‘yoqdor leksemalar bilan sifatlantiriladi. Biz asosan namuna tariqasida keltirib o‘tilgan maqollarimizda erkak konseptining ijobiy semantik maydonlar hosil qilishini tahlil qildik. Ammo, yigit obraziga, erkaklik tushunchasiga yarashmaydigan illatlar ham yo‘q emas. Ushbu illatlar maqollarda qoralanib, erkak konseptiga ma’nan munosib kelmasligi, erkakning asliyligiga putur yetkazishi va bunday yomon fazilatlardan uzoq turilishi kerakligi tushuntiriladi. Misol uchun, “Dangasaning vaji ko‘p, ohangsizning avji ko‘p” xalq maqoli orqali “dangasalik” illati bir semantik maydon sifatida erkak konseptida ham uchrashi mumkinligi ifodalangan. Yuqoridagi maqol namunalarida asosan zidlashtirilgan semantik obrazlarni uchratish mumkin. Bunda ikki erkak konseptiga aloqador xususiyat bir biriga qarama qarshi keltirilib, xalqning tasavvurida asl erkak qanday bo‘lishi kerakligi yoritib berilgan. “Nomard”, “qo‘rqoq”, “dangasa”, “ishyoqmas” kabi salbiy leksemalar erkak konseptining salbiy baholash zonasini tashkil etadi va har ikki xalq mafkurasida qoralanadi.

Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash mumkinki, maqollar ma’lum hudud aholisining asrlar osha boshidan kechirgan tajriba, hayot va turmush tarsi, ichki kechinmalar, ma’naviy hamda madaniy dunyoqarashlar va diniy e’tiqod masalalarini qisqa va lo‘nda tarzda tilda ifodalovchi birliklar sanaladi.[Aksoy, 1988: 37] maqollarda gender masalasi eng dolzarb va eng muhim ahamiyat kasb etuvchi yo‘nalishlardan biridir. Gender faqat biologik jinsni emas, balki ijtimoiy va jamiyat hayotida erkak va ayolga xos modelni ifodalab keladi. Bugungi kunda gender tadqiqotlar kun sayin dolzarb mavzulardan biriga aylanib bormoqda. Biz yuqorida tahlil qilib chiqqan, ikki xalq: O‘zbek va turk maqollarida erkak konsepti hamda u hosil qiluvchi semantik maydon mavzusi ham aynan yangi davr tilshunoslik sohalarida ulkan ahamiyat kasb etadi. Bunda ikki xalqning ma’naviy tushunchalarida erkak konseptining qay tazrda talqin qilingani ko‘rib chiqilib, unda erkak tushunchasining markaziy semantik zonalari: jasorat, mehnat-hunar,

so‘z-nomus, ota-avlod va metaforik obrazlarni namoyish qilgani tahlil qilindi. Va natijada, erkak konsepti “erkak”, “er”, “yigit”, “ota” kabi leksemalar orqali bevosita nominatsiya bilan ifodalanib, “mard”, “botir”, “arslon”, “maydon”, “hunar”, “rizq”, “so‘z” birliklari orqali esa bilvosita nominatsiyada erkaklik modelini faollashtirilgan. O‘zbek va turk maqollarida umumiy turkiy qadriyatlar saqlangan, biroq ma’no urg‘usi, obraz va metaforalar tanlovida milliy o‘ziga xoslik mavjud. Keltirilgan misollarda faqat bir biriga m’no jihatdan deyarli bir birini takrorlovchi ikki millat parameologik birliklari tanlab olindi, va shu orqali ikki qardosh xalqning erkak konseptiga nisbatan asrlar davomida shakllantirgan qarashlari, baholash va mezonlari asosan ayni ekanligi xulosa sifatida kelib chiqdi.

ADABIYOTLAR

1. Murat YATAĞAN. ÖZBEK ĦALQ MÅQALLÄR (ÖZBEK HALK ATASÖZLERİ). (Yüksek Lisans Tezi). - Kütahya, 2010

2. Ömer Asım Aksoy, (1988) Atasözleri Sözlüğü, İnkılap Kitapevi, İstanbul: s. 37

3. Mehmet Hengirmen, (2007), Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü, 1. Baskı, Engin Yayınevi, Ankara: s. 6

4. Türk Dil Kurumu, http://tdkterim.gov.tr/bts/?kategori=verilst&kelime=atas%F6z%FC&ayn=tam., (09.02.2010)

5. https://turkoloji.cu.edu.tr/makale_sistem/tum_view.php?id=24542

6. https://www.rajournals.in/index.php/rajar/article/view/1744

7. https://zenodo.org/records/17171872/files/09Rajar.pdf

8. http://modernscience.uz/media/article/20-24.pdf

9. https://orientalstudies.uz/index.php/ot/article/download/456/412/732

10. https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2024/05/Altinboyev-Avtoreferat-oxirgi.pdf

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**